

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

BUXORO AMIRLIGIDA DIPLOMATIYANING RIVOJLANISHI TARIXI

Xakimov Jahongir Ne'matjon o'g'li

o'qituvchisi Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali

Rasulova Shahnoza Abduvasi qizi

o'qituvchisi Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali

Annotatsiya:

Ushbu tezisda Buxor amirligida diplomatiyaning rivojlanish keltirilgan unda ahamiyatli jihati, uning rivojlanishiga hissa qo'shgan amirlarning sa'yi harakatlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Amir, Diplomatiya, tashqi aloqa, davlatchilik, Hindiston.

Annotation:

In this thesis, the development of diplomacy in the Bukhara Emirate is presented, its important aspects and efforts of the emirs who contributed to its development are presented.

Keywords: Amir, Diplomacy, foreign relations, statehood, India.

Milliy davlatchilik tarixidan ma'lumki, mamlakatimizning taraqqiyoti davomida uning hududida bir qator yirik davlatlar tarkib topgan va ko'plab sulolalar o'z hukmronligini amalga oshirgan Ta'kidlash joizki, mazkur davlatlarning tashkil topishi rivojlanishi va barham topishiga bir qator omillar sabab bo'lgan. Binobarin, ushbu omillar qatorida ularning muhim geostrategik hududda joylashganligi, O'rta asrlarda G'arb bilan Sharqni bog'lovchi muhim karvon yo'llarinnig o'tganligi, islom madaniyati o'choqlaridan hisoblangan Samarqand, Buxoro va Urganch (keyinchalik Xiva) shaharlarining joylashganligi, savdo-sotiq va hunarmandchilikning rivojlanganligi va boshqa qator jihatlarni sanab o'tish mumkin. Biroq tadqiqot doirasida o'rganilayotgan davrga kelib, ya'ni XVIII o'rtalari– XX asr boshlarida Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, Buxoro, Qo'qon va Xiva xonliklari savdo-sotiq, ilm-fan va boshqa sohalarda jahon sivilizatsiyasidan bir muncha ortda qolib ketdi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, yuqoridagi holatlarning yuzaga kelishiga bir qator



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

omillar sabab bo'lgan. Birinchidan, mazkur hududda o'z manfaatlariga ega bo'lgan dunyoning yetakchi davlatlarining o'zaro nizolari (Rossiya-Turkiya, Rossiya-Eron, Angliya-Hindiston nizolari); ikkinchidan, Markaziy Osiyo davlatlarida o'zaro birlikning, hamjihatlikning mustahkam emasligi; uchinchidan, qo'shni Eron, Afg'oniston davlatlari bilan davlatlararo hududiy nizolarga barham berilmaganligi; to'rtinchidan, mahalliy urug'-aymog'chilikning kuchayishi natijasida yuzaga kelgan ichki kelishmovchiliklar vag'alayonlarning (xitoy-qipchoqlar, shialar) uzluksiz davom etishi va boshqalar.

Yuqoridagi omillar bilan bir qatorda, xonliklarning yirik davlatlar o'rtasidagi nizolardan foydalangan holda har tomonlama o'ylangan va muayyan maqsadni ko'zlagan tashqi siyosat, xususan, diplomatik munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'ymaganligini ham keltirib o'tish o'rinlidir. Binobarin, milliy manfaatlarini ustuvor yo'nalish sifatida oqilona tashqi siyosatni amalga oshirish o'z navbatida, davlatning ichki va tashqi mustaqilligini, xavfsizligini, taraqqiyotini belgilab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, ushbu omilga nafaqat, xonliklar va Chor Rossiyasi davrida, balki yaqin o'tmish ittifoq tuzumi zamonida ham muayyan darajada e'tibor berilmagan hamda bu borada yetarli tajriba va amaliyot mavjud bo'lmagan.

Shu jihatdan olganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning bu boradagi fikrlarini keltirib o'tish o'rinli, deb hisoblaymiz, ya'ni "O'zbekiston Respublikasi uchun mustaqil tashqi siyosat yuritish – davlat faoliyatining yangi va amalda qo'llanilmagan yo'nalishlaridan biridir. Yakkahokimlik tizimi sharoiti da O'zbekiston xalqaro maydonga to'g'ridan to'g'ri va ochiq chiqish imkoniyatidan mahrum etilgan bo'lib, o'zining tashqi davlatga, yetarlicha diplomatlariga va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi mutaxassislariga ega emas edi".¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning yuqorida keltirilgan fikrlaridan kelib chiqib, milliy davlatchilik tarixining muhim masalalaridan biri bo'lgan tashqi siyosat va diplomatik munosabatlar tarixini xolisona o'rganish va undan tegishli xulosalar chiqarish hamda davlatning taraqqiyoti va rivojlanishida uning ahamiyatini ko'rsatib berish bugungi kunda tadqiq etilishi dolzarb bo'lgan mavzulardan biri hisoblanadi.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – B.50



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Buxoro amirligining tashqi siyosat borasidagi faoliyatini tadqiq etishda tegishli qo‘lyozma asarlar va arxiv hujjatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu o‘rinda ta’kidlash joizki, bizgacha yetib kelgan tarixiy manbalar mazkur davrga oid bo‘lgan tashqi siyosat borasidagi voqelikni to‘liq tavsiflash imkonini bermaydi. Bunday holatning yuzaga kelishiga Buxoro amirligida qo‘shni davlatlar bilan muntazam elchilik aloqalari o‘rnatilmaganligi, tashqi siyosat borasida olib borilgan faoliyatni lozim darajada qayd etilmaganligi, oz bo‘lsada, sohaga oid mavjud manbalarda u yoki bu amirning bu boradagi siyosatini haqqoniy va xolis yoritilmaganligi, boshqa mamlakatlar elchiliklari tarkibidamirlikka kelgan sayohatchilarning asarlarida ushbu masalalar qisman va o‘z mamlakatlari manfaatidan kelib chiqqan holda baholanganligi kabi qator sabablarni keltirib o‘tish mumkin. Lekin shunga qaramay ushbu masalalar yuzasidan bir qator sharqshunos, o‘lkashunos va tarixchi olimlar tomonidan muayyan darajada ilmiy tadqiqotlar olib borilganligini ham e’tirof etish lozim. Shu bilan birga, mazkur izlanishlarda tashqi siyosat va diplomatiya tarixiga oid bo‘lgan manbalar yetarli tarzda tahlil etilgan deb bo‘lmaydi. Ularda Buxoro amirligining ayrim hukmdorlari tashqi siyosatiga qisman e’tibor berilib, asosan ma’muriy tuzilish, yer-suv munosabatlari, soliq tizimi, davlat mansab va unvonlariga oid ayrim jihatlar o‘rganilgan, xolos. Masalan, A.A.Semenov tomonidan amir Haydarning Rossiya podshohi Aleksandr I ga yo‘llagan maktublari, G.A.Mixaleva tomonidan esa Buxoro amirligi bilan Rossiya o‘rtasidagi savdo-sotiqqa oid aloqalar o‘rganilgan. Shu jihatdan olganda, Buxoro amirligi diplomatik aloqalarining huquqiy asoslari, tashqi siyosatining tamoyillari, qoidalari hamda o‘ziga xos xususiyatlari amalga oshirilgan tadqiqotlar doirasidan chetda qolib ketganligini qayd etish lozim.

Yuqoridagilarni inobatga olib, bizning fikrimizcha, ushbu davrda amalga oshirilgan tashqi siyosatning quyidagi masalalarini o‘rganish muhimdir. Chunonchi, tadqiq etilayotgan davr yirik davlatlarning o‘zaro nizolari, urushlari davriga to‘g‘ri kelganligi va shu munosabat bilan Buyuk Ipak o‘lining ahamiyati pasayishi sharoitida olib borilgan diplomatik aloqalarning o‘ziga xosligi;

- mamlakatda mahalliy-urug‘larning o‘zaro kelishmovchiliklariga qaramasdan tashqi siyosiy aloqalarning muayyan darajada olib borilganligi;
- Buxoro amirligining tashkil topishi jarayonida Eron va Buxoro davlatlari o‘rtasida yuzaga kelgan vaziyatdan kelib chiqib, mamlakatning mustaqilligini saqlab qolish maqsadida oqilona diplomatik siyosat yuritilganligi;



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

- Rossiya imperiyasiga qaramlik sharoitida Buxoro amirligining olib borgan tashqi siyosat va diplomatik aloqalarining o'ziga xosligi kabi masalalarni o'rganish shular jumlasidandir. Shu bilan birga, bizgacha yetib kelgan ma'lumotlarni tahlil etish orqali mang'it hukmdorlaridan amir Haydar, amir Nasrullo, amir Muzaffar va amir Abdulahadlar hamda qisman amir Said Olimxon davrida diplomatik aloqalarning bir muncha faol kechganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday xulosaga kelish uchun quyidagi jihatlar asos bo'lganligini qayd etish o'rinli deb hisoblaymiz:

- Birinchidan, ushbu amirlar hukmronligi yillariga oid diplomatik yozishmalar, xatlar va hujjatlar ko'proq saqlangan;
- ikkinchidan, ushbu davrda Buxoro amirligi va boshqa davlatlar bilan diplomatik munosabatlar o'rnatishga keng e'tibor berilgan;
- uchinchidan, olib borilgan tashqi siyosat o'z navbatida, amirlikda savdo-sotiqni rivojlantirishga, yangi ta'lim usullarini kirib kelishiga, sanoat, qurilish va ishlab chiqarish sohalarida muayyan darajada o'zgarishlarga olib kelgan;
- to'rtinchidan, aynan ushbu davrga kelib davlat hokimiyatini amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolarni huquqiy vositalar asosida hal qilishga e'tibor qaratilgan.

Amir Haydar hukmronligi davrida O'rta Osiyo davlatlari – Xiva va Qo'qon xonliklari, Rossiya, Eron, Afg'oniston, Xitoy hamda Usmoniylar davlati bilan xalqaro iqtisodiy, madaniy va siyosiy-huquqiy munosabatlarni shakllantirish maqsadida elchilik aloqalarini yanada mustahkamlashga harakat qilingan. U o'z sulolasidan bo'lgan boshqa amirlardan farqli o'laroq, mang'itlar hukmronligini mustahkamlash, ichki va tashqi muxoliflarga qarshi kurashda qator muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishga erishgan davlat boshlig'i sifatida ajralib turadi. 1809-yilda Rossiyadan Buxoroga "maxfiy suratda yana bir konfident – poruchik Odilnosir Subhonqulov Orenburg harbiy gubernatori nazorati ostida yuboriladi". Poruchik Subhonqulov missiyasi dastlab Buxoro amirligi hamda Rossiya davlatlari o'rtasidagi karvon savdolarining xavfsizligini ta'minlash, aniqrog'i qaroqchilar tomonidan talon-taroj qilingan savdo karvonlari masalasini hal qilish hamda Rossiya-Buxoro davlatlari hamkorligida o'zaro jinoyatchilikka qarshi kurashish, shu bilan birga, Rossiyadan qochib Buxoroda boshpana topgan soxta pul yasovchi Xamitov va uning sheriklarini Rossiya davlatiga topshirish bilan bog'liq masalalar



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

bilan shug‘ullangan.² O‘z navbatida, amir Haydar javob xatida bunday masalalar faqatgina ikki davlatning boshliqlari tomonidan hal qilinishi, ya‘ni amirga faqat bevosita Rossiya davlati boshlig‘i murojaat qilishi lozimligi haqida bayon etadi.

Buxoro amiri Haydar o‘zining ana shu maktubi bilan davlatlararo qonun-qoidalariga rioya etish masalasini eslatib, unga tanbeh berish bilan birga, xalqaro miqyosda Buxoro amirligining mustaqil davlat sifatida obro‘-e‘tiborini saqlashga naqadar katta e‘tibor berib kelganligini ham namoyon etadi. Ikki davlat o‘rtasidagi kelishuvlar asosida jinoiy-huquqiy yordam ko‘rsatilib, Rossiya davlati ixtiyoriga Valit Hamitov boshchiligidagi jinoiy guruh topib beriladi. Undan tashqari Subhonqulov missiyasiga soxta pullar kim orqali, qaysi yo‘llar bilan tarqatilganligi haqidagi ma‘lumotlar taqdim etiladi. Odilnosir Subhonqulov Buxoroda qo‘lga olingan 3 ta rus asirini ozod etishga muvaffaq bo‘ladi. Shu o‘rinda, Buxoro amirligi va Rossiya davlatining o‘zaro ikki tomonlama xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashdagi hamda savdo sotiqni rivojlantirishga qaratilgan munosabatlari muvaffaqiyatli kechganligini e‘tirof etish joiz.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, ushbu davrda amalga oshirilgan tashqi siyosatning quyidagi masalalarini o‘rganish muhimdir. Chunonchi, tadqiq etilayotgan davr yirik davlatlarning o‘zaro nizolari, urushlari davriga to‘g‘ri kelganligi va shu munosabat bilan Buyuk Ipak o‘lining ahamiyati pasayishi sharoitida olib borilgan diplomatik aloqalarning o‘ziga xosligi mamlakatda mahalliy-urug‘larning o‘zaro kelishmovchiliklariga qaramasdan tashqi siyosiy aloqalarning muayyan darajada olib borilganligi muhim ahamyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mannonov B. O‘zbek diplomatiyasi tarixi. – Toshkent: JIDU, 2003.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996.
3. Rahmonqulova Z. XIX asrda O‘rta Osiyo diplomatiyasi // Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2003.
4. Xakimov J Buxoro amirligida karvonsaroylarning ahamiyati. Proceedings of International Conference on Modern3-tom. 2023. 111 bet.
5. Google.ru
6. Ziyouz.net

² Mannonov B. O‘zbek diplomatiyasi tarixi. – Toshkent: JIDU, 2003. – B.191.

